



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 316 sahifa,
16-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	10
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlarining boshqaruv madaniyati	15
<i>Xurramov Anvar Vafqulovich</i>	
5–7 yoshli bolalar jismoniy rivojlanishida futbol o'yin elementlarining pedagogik ahamiyati	19
<i>Olim Ziyoyev Toshpulatovich</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari.....	23
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, G'ulomova Durdona Shovkat qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	26
<i>Ashirov Abdirashid Ravshanovich, Olimjonova Humora</i>	
Algebra va funksiya: SAT matematikasining asosi	30
<i>Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich</i>	
Psixologik savodxonlikning psixologik xizmat samaradorligini ta'minlashdagi nazariy va amaliy asoslari	34
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida talabalarda pedagogik odobni rivojlantirish muammosi	40
<i>Fayzullayeva Feruza Aktamjon qizi</i>	
Yosh oilalarning mustahkamligiga zamonaviy axborot vositalaridan foydalanishning ta'siri	44
<i>Kushakova Nargiza Islambaevna</i>	
Strategic Educational Management: Methods for Improving Teaching and Learning Outcomes	47
<i>Majitova Munisa Oybek qizi</i>	
Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	51
<i>Normurodova Qunduz Tursun qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish	54
<i>Nurmaxmatov Lutfulla Abduxomid o'g'li</i>	
Savod o'rgatish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	58
<i>Po'latova Sitora Olimjonovna</i>	
Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmlari	62
<i>Rahmonov Amirshoh Abdumuxtorovich</i>	
Bo'lajak kimyo o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish.....	66
<i>Shomurotova Sh. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodika asoslari	70
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Raqamli savodxonlikni rivojlantirishda sun'iy intellekt vositalarining pedagogik va metodologik imkoniyatlari.....	73
<i>Shermanova Feruza Djumaboyevna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetentligini rivojlantirishda art-pedagogik texnologiyalar .	77
<i>Suvanova Kamola Raimqul qizi</i>	
O'quvchilarning mustaqil fikrlash samaradorligini oshirishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni.....	81
<i>Zikriyoyeva Feruza Sadullo qizi</i>	
Обучение основам ультразвуковой диагностики с использованием метода “Каждый учит каждого” ...	85
<i>Набиев Абдулло Абдувохидович</i>	
To'lepbergen Qayipbergenov asarlarida komil insonni tarbiyalash masalalari	88
<i>Xabibnazarova Saiyra Baxitbayevna</i>	



Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" asari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy fazilatlarini shakllantirish	91
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi</i>	
Ekologik muammoli vaziyatlar orqali kimyo fanida kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi	96
<i>Ibodullayeva M. I., Dinnazarova F. S.</i>	
Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish metodikasi	101
<i>Saydullayev Zafar Erkinovich</i>	
Talabalarni milliy hunarmandchilik vositasida samogen tarbiyalashda tarixiylik tamoyili	104
<i>Allanov Shuxrat Qilichovich</i>	
"Harry Potter" asarining o'zbekcha tarjimasida stilistik vositalarni qayta yaratish masalalari	108
<i>Fayziyev Baxodir Baxshilloevich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishning integratsiyalashgan texnologiyalaridan foydalanish	112
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi, Nurmatova Gulchexra Baxadirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asoslari	116
<i>Shukurova Zarina Mirobid qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash	119
<i>Eshonqulova Ma'suda Habibovna</i>	
Yosh oilalarda nikoh barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	123
<i>Islomova Ozoda Isomiddin qizi</i>	
Aqliy rivojlanishida orqada qolgan bolalarni inklyuziv ta'limda o'qitish metodologiyasi	127
<i>Abdullayeva Maftuna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida xavfsiz psixologik muhit yaratishning pedagogik ahamiyati	131
<i>Turayeva Gulchexra Urayimovna, Ziyaeva Umida Xolmat qizi</i>	
STEAM asosida kollaborativ ta'lim muhitida metakompetensiyalarni rivojlantirish	135
<i>Axmadova Malika</i>	
Yosh sportchilarni sportga yo'naltirish va sportchilarni tanlash muammolari (futbol sport turi misolida)	139
<i>Xotamov Jaloliddin Xusniddin o'g'li</i>	
Biologiyada amaliy tajribalar o'tkazishning zamonaviy virtual yechimlari	143
<i>Mirzayeva Nodira Abduxamidovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning ahamiyati	146
<i>D. P. Xodiyeva, M. Sh. To'rayeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni shakllantirish metodikasi (texnologiya darslari misolida)	150
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Jurayeva Ozoda Ortiq qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'rgatishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish	154
<i>G'. Yu. Eshmirzayev</i>	
O'quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda kimyo ta'limining o'rni va o'ziga xos jihatlari	157
<i>Kamolova Nargiza Ibragimovna</i>	
Bilingvizm (ikki tillilik) sharoitida o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	161
<i>Mapruza Embergenova</i>	
Zamonaviy jamiyatda gender sotsializatsiyasi va psixologik jins xususiyatlari: maskulinlik, femininlik va androginlikning empirik tahlili	167
<i>Nasrullayeva Asolat Abdumalik qizi</i>	
Bo'lajak muhandislarda chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning amaliy tatbiqlarini o'qitish haqida	171
<i>Qushmurotov Umurbek Ibadillayevich</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining xorijiy til kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari natijalari	177
<i>Raximova Nigora Atakulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'p ma'noli so'zlar ustida ishlash orqali nutqiy qobiliyatini rivojlantirish ..	180
<i>Xo'jayeva Durdonaxon Maqsud qizi, Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna</i>	
Pul qadriyatining o'smirlik davrida shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy, ijtimoiy va psixologik omillar: iqtisodiy ijtimoiylashuvning psixodinamik yondashuvda tahlili	184
<i>Xolmuratova Mahbuba Maxmudovna</i>	

O'smirlarda koping xulq-atvor shakllanishida ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari Yarmatova Sanobar Jo'rayevna	189
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning matematik kompetensiyalarini rivojlantirishda interfaol metodlar Norquvatova Diyora Davron qizi	193
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	197
Системно-функциональное моделирование и эмпирический анализ нравственно-волевой детерминации в профессиональной деятельности военнослужащих Зохилов Нодирбек Улугбекович	201
Kimyo fanini o'qitishda muommali ta'lim metodining o'рни va amaliy ahamiyati Kultayev Kuzibay Kazakbayevich	205
Rolli o'yinlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni erta kasbga yo'naltirishning pedagogik shart-sharoitlari Niginabonu Fayzullayeva	209
Boshlang'ich sinflarda PIRLS va TIMSS talablariga mos ta'lim texnologiyalarini qo'llashning didaktik asoslari Qurbonova Maxtuma Fazliddinovna, Mamedova Maxfuza Erkinovna, Omonova Gulandom Davlatovna	214
Raqamli texnologiyalar vositasida virtual laboratoriyalarni o'qitish Tilovova Turdixol Baratovna	219
Hosila va uning tadbirlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li	222
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining diskursiv kompetensiyasini shakllantirish texnologiyalarini amaliyotda qo'llash usullari Dauletnazarova Ainura Kayirbaevna	228
O'quvchilar o'rtasida bullingni oldini olish va pedagogik-psixologik omillarni bartaraf etish yo'llari U. A. Alibayeva	233
Yosh avlodning milliy tarbiyasini shakllantirishda xalq pedagogikasining pedagogik-psixologik mexanizmlari O. K. Kadambayeva	236
Bo'lajak logopedlar rinolaliyani og'ir nutq nuqsoni sifatida o'rganishda qo'llaniladigan topshiriqlarning ahamiyati Achilova Sevara Djasirkulovna	240
Tarjima mashqlari orqali nemis tili (DaF) darsida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish Musayeva Guzal Ne'matillayevna	243
O'tkir Rahmat she'rlari lingvopoetikasi Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	247
Проблемы и тенденции развития грамматики русского языка Юлдашев Баходир Бекмуратович	250
O'smir taekvondochilarning qo'l-oyoq kuchining an'anaviy mashg'ulotlar davomida o'sish sur'ati A. X. Norov	253
Инновационные педагогические технологии в преподавании русского языка и проблемы повышения качества подготовки кадров Адилова Солияхон	259
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish Muminjonova Muhayyo G'ulomovna	263
Nutqning ijtimoiy-psixologik va lingvistik xususiyatlari Sh. I. Nurmatova, G. B. Xujamova	268
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'lim muhitini shakllantirish va o'quv materiallarining ahamiyati Abdullayeva Uljalg'as Tulegen qizi	271
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxsiy pedagogik kompetensiyani aniqlash metodologiyasi D. O'. Yo'ldosheva, J. A. Jovlijev	274



Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga badiiy adabiyot vositasida ijtimoiy xulq madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati.....	278
Daminova Shoxista Farxodovna	
Using the Method of Mnemonics in Teaching English Idioms: Enhancing Retention and Comprehension in EFL Learners	281
Dusmamadova Gulsum Shukhratovna	
Sun'iy intellekt asosida shaxsiylashtirilgan matematika ta'limining o'quvchilar natijalariga ta'siri	284
Jurayeva Gulshanoy Turdiyevna	
Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishda axborot oqimlarining ijobiy ta'sirlari.....	288
Karimova Umida Alijon qizi	
Viruslar replikasiyasining molekulyar asoslari va uni o'qitishda "Case-study" metodining samaradorligi.....	293
O'. E. Xo'janazarov, B. B. Ishmo'minov, M. Fayzieva, M. Xayitmuratova	
Psixodiagnostik metodikalar asosida talabalarning xarakter aksentuatsiyasining gender farqlarini o'rganish	298
Sh. Allanazarova, R. Janabaeva	
"Muhofazaga olingan hududlar" modulidan talabalarning bilimni nazorat qilishga mo'ljallangan nostandart testlardan foydalanish metodikasi	301
Saidmuratov Shoxid Xusanovich, Ishmo'minov Bobur Botir o'g'li, Abduvohidova Madina Ilhomjon qizi, Matkomilova Feruza Xasan qizi	
Ergonomik yondashuv asosida registrator ofisi ish jarayonlarini modellashtirish va takomillashtirish	307
To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li	
Sport turlarini tasniflash va sport mashg'ulotlarini kompleks monitoring qilishning ilmiy-metodologik asoslari	311
Ilhomjon Axmedovich Tursunaliyev	



RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING QOBILIYATLARI VA IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Muminjonova Muhayyo G'ulomovna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti

“Boshlang'ichta'lim pedagogikasi” katta o'qituvchisi, p.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining qobiliyatlari va imkoniyatlarini rivojlantirish, kreativlik, zamonaviy kasbiy bilimlar va kreativlik qobiliyatlarini takomillashtirish masalalari, kreativlikni shakllantirish shartlari hamda ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, ta'lim mazmunini yangilash, kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy ta'lim, ko'nikma, qobiliyat, o'qitishni individuallashtirish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari, kreativlikni oshirishga qaratilgan kompetensiyalar.

Abstract: This article discusses the development of the abilities and potential of future primary school teachers, the enhancement of their creativity, modern professional knowledge, and creative capabilities. It also addresses the conditions for developing creativity and the principles for structuring educational content.

Key words: Creativity, educational content renewal, development of creative abilities, primary education, modern education, skills, capabilities, individualization of teaching, future primary school teachers, competencies aimed at enhancing creativity.

Аннотация: В статье рассматривается развитие способностей и возможностей будущих учителей начальных классов, повышение их креативности, современного профессионального знания и творческих способностей. Также обсуждаются условия формирования креативности и принципы структурирования учебного контента.

Ключевые слова: Креативность, обновление содержания образования, развитие творческих способностей, начальное образование, современное образование, навыки, способности, индивидуализация обучения, будущие учителя начальных классов, компетенции, направленные на повышение креативности.

KIRISH

Dunyodagi globallashtirish va ta'limning integratsiyalashuvi jarayonlarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlar va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Bugungi kunda jahonda ta'limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy metodik ta'minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohasiga yo'naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Zero, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari sifatida ularning ijodiy qobiliyatga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limda kreativlikni rivojlantirish va pedagogik kompetensiyalarni oshirish masalalari zamonaviy ta'limning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hamidov J.A. (2017) o'zining dissertatsiyasida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi haqida batafsil ma'lumot beradi, bu esa ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Uning 2022-yilda nashr etilgan asarida esa zamonaviy pedagogik vositalar va ularning professional ta'limda qo'llanishi, ayniqsa, kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan metodlar o'rganilgan. Shuningdek, Mo'minjonova M.G. (2023) tomonidan ta'lim mazmunini loyihalash va innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati ta'kidlangan. Ushbu adabiyotlar ta'lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini ko'rsatadi va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llashni zaruriyat sifatida belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Kreativlik tushunchasi (lot. ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) ingliz tilidan tarjima qilganda ijod ma'nosini anglatadi ^[6]. Haqiqatan, kreativlik yangi, original (o'ziga xos), yanada sayqallangan moddiy va ma'naviy bog'liqliklarni yaratishdir. Kreativlikni ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deb ta'riflash mumkin. Pedagogik faoliyatda kreativlikning ahamiyatini "kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyatida, kreativlik sifatlarida va kreativlikni rivojlantirish shartlarida ko'rishimiz mumkin. Bo'lajak pedagoglarda kreativlikni shakllantirish shartlari quyidagilardan iborat: qiziqarli va murakkab vazifalar, aniq maqsad va vaqt bilan ta'minlash, kreativlik hissini yuzaga keltirish, bezovtalik va qo'rquv hissidan xalos bo'lishga yordam berish, shuningdek, kreativ fikrlash ko'nikmalarini boshqa ko'nikmalar bilan rivojlantirishga yordam berishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'limning faol va yetakchi sub'ektlari bo'lgan o'quvchilarning yosh va pedagogik-psixologik xususiyatlari, shuningdek, texnologiyaning o'ziga xos jihatlari o'qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shaxsning hissiy qobiliyatga egaligi uning atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri tashkil eta olishiga imkon beradi. Zero, bu qobiliyat nafaqat o'zligini tushunish, balki atrofdagilarning uy-xayollari, ichki kechinmalari, orzu-o'ylarini tushunish, ularni his qila olish, ruhan yaqin bo'lishiga imkon yaratadi. Pedagogik oliy ta'lim bitiruvchilarining hissiy va ijodiy qobiliyatga ega bo'lishlari ta'lim-tarbiya jarayonining faol sub'ektlari – o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning mo'tadil kechishini ta'minlaydi va yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etishga yordam beradi. Har bir o'quvchining individual xususiyatini inobatga olish va unga muvofiq yondashish, shuningdek, o'quvchilarning xatti-harakatlarini to'g'ri tushunish, aytayotgan so'zlariga ishonch bildirishda bo'lajak pedagoglarning hissiy qobiliyatga ega bo'lishlari muhim ahamiyatga ega.


Talabalarning kreativligini rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo'naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o'z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflash – kreativ o'qitishning maqsadi hisoblanadi va aynan kreativ o'qitishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish hamda ularning ijodiy fikrlashini kreativ o'qitish metodlari va innovatsion texnologiyalari yordamida takomillashtirish ahamiyatlidir. O'qitish jarayonining vazifasi ta'lim, tarbiya va rivojlanish birligini ta'minlashni nazarda tutadi. Ta'lim beruvchilarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda ularning kasbga bo'lgan qiziqishi va pedagoglarning kreativligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik – ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ o'qitish jarayonini shakllantirish, kreativ o'qitish metodlari va innovatsion texnologiyalari orqali kasbiy-texnologik bilimlar olish va kreativ salohiyatni oshirish, turli uslublardan ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishda foydalanish, talabalarning ta'lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm: Kreativlikni oshirishga qaratilgan kompetensiyalar sxemasi

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olishdir. Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy vazifalar quyidagilarni o'z ichiga oladi (2-rasm):



2-rasm: Kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan asosiy vazifalar

Ta'lim mazmuni darajasi insonlarning tabiat, jamiyat, insoniyat haqidagi bilimlariga, inson imkoniyatlari natijasida yaratilgan faoliyat turlari yuzasidan egallagan bilimlariga va muammolarni yangicha echimini topish, dunyoni anglash kabi qobiliyatlariga qarab aniqlanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari quyidagilardan iborat (3-rasm):



3-rasm: Ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillar Texnologiya ta'limida onglilik va faollik tamoyili

Talabalar tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishi uchun qilayotgan ish mazmunini yaqqol tasavvur qilgandagina ishga ongli ravishda kirishadi. Bu tamoyil talabalarni tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab olishni talab qiladi, shuningdek, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadi. Talabalarni tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishdagi onglilik tamoyili ta'lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o'rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishni tushungan holda o'zlashtirib olish, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilish kabi me'yorlarni anglatadi.

Texnologiya ta'limida ilmiylik va tizimlilik tamoyili talabalarning tikuvchilikka oid kreativligini rivojlantirishda ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko'rilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so'nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak. Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida talabalarning tikuvchilikka oid kreativligi ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o'qitiladigan o'quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo'lishi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tikuvchilikka oid bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyati kreativ rivojlantirishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi o'z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tikuvchilikka oid o'rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi kerak.

Texnologiya ta'limida tizimlilik va izchillik – o'qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o'quv fanlarini o'qitish qat'iy mantiqiy tartibda olib boriladi. Talabalarni tikuvchilikka oid kreativ rivojlanishlari uchun bilim ko'nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o'rganadilar.

Tizimlilik va izchillik tamoyili pedagogik jarayonning hamma bo'g'inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o'z aksini topadi. O'quv materialini to'g'ri taqsimlash, ya'ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o'tishni talab qiladi. Texnologiya ta'limida izchillik tamoyili talabalarni tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda didaktika qoidalariga amal qilishni talab etadi: oddiydan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga.

Mavzularni o'tishda yoki texnologik muammolarni yechishda o'qituvchi darsni shunday rejalashtirishi kerakki, o'quvchilarning hammalariga tushunarli bo'lishi kerak. Talabalarni tikuvchilikka oid kreativ rivojlantirishda yoshi va individual xususiyatlari hisobga olinishi talab etiladi. Ushbu tamoyillarga muvofiq, barcha o'quv modullari doirasida boshlang'ich ta'lim va sport ta'lim yo'nalishi talabalarini kreativ o'qitishning mazmuni takomillashtirildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligini oshirish uchun tavsiyalar ta'lim jarayoniga tadbiiq etilishi natijasida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari mustaqil izlanish va ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi;
- tabaqalashtirilgan ta'limga o'qitish imkoniyati yuzaga keladi;
- o'qitishning uzluksizligi va ketma-ketligi ta'minlanadi;
- modulning pirovard maqsadi tushunib yetiladi;
- mehnat jarayonlarining asosiy jihatlari ajratib ko'rsatiladi;



- modulning butun hajmi va maqsadi talabning ko'z oldida yaqqol gavdalanadi;
- har bir modul ichida va ular orasida uzviylik ta'minlanadi, o'quv jarayoni barcha turlarining uslubiy jihatdan muvofiqligi ta'minlanadi.

Buning natijasida bo'lajak o'qituvchilar yetarli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladi. Shunday qilib, kreativlik bo'yicha yuqorida keltirilgan tavsiyalar qo'llanilganda talabalarning bilim imkoniyatlari, ijodiy va amaliy qobiliyatlari rivojlanadi. Mashg'ulotlar davomida kasbga qiziqirish asosida fanni samarali o'zlashtirishga erishiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar faol qo'llanilishi lozim. Shuningdek, o'qitish jarayonida talabalarning individual xususiyatlari va ijodiy salohiyatini hisobga olish zarur. O'qituvchilarni kreativ fikrlashga yo'naltirishda muammoli vazifalar va interfaol metodlardan foydalanish samarali bo'ladi. Ta'lim mazmunini yangilash va tizimli yondashuv asosida o'qitish metodlarini takomillashtirish, o'quvchilarning innovatsion fikrlashini oshirishga yordam beradi. Oliy ta'limda kreativlikni shakllantirish jarayonini davom ettirish uchun o'qituvchilarni zamonaviy metod va texnologiyalar bilan doimiy ravishda tanishtirib borish muhim. Bu takliflar maqolada keltirilgan g'oyalarni mustahkamlashga yordam beradi va bo'lajak o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Ped. Fan. Dokt. dissertatsiya. Toshkent: 2017-y. – 19-21-betlar.
2. Hamidov J.A. O'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish texnologiyasi asoslari, g'oyalari va tamoyillari. O'zbekistonda professional ta'lim. Toshkent, 2022-y., № 1, B. 41-46-betlar.
3. Hamidov J.A. Umumkasbiy fanlarni o'qitishda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni o'qitishga yo'naltirishning muammo va yechimlari. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Jizzax: 2022-y. 409-416-betlar.
4. Ergasheva G.S. Oliy ta'lim muassasalarida biologiya darsliklari o'quv materiallarini loyihalash didaktik asoslari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2006-yil.
5. Mo'minjonova M.G. O'quv materiallari mazmunini loyihalash texnologiyasini takomillashtirish. Ped. Fan. Dokt. (PhD) dissertatsiyasi. Jizzax, 2023-y. – 44-61-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.